



## IJTIMOIY-PEDAGOG FAOLIYATIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Normamatova Dilafro'z Jo'rayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Tel raqam: +998886920910

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy – pedagog faoliyatda pedagogik texnologiyalarning o'rnining mazmuni va pedagogik faoliyatda qanday pedagogik texnologiyalarni qo'llasak samaradorlikka erishishimiz mumkinligi yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy pedagog, texnologiya, jamiyat, muhit, pedagogik texnologiya, sotsiologiya,

**Kirish.** Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy ma'naviy hayotning rivojlanishi murakkab jarayonlardan iborat. Albatta, bunday jarayon kishilarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bilim saviyasi yetarliy bo'lgan, e'tiqod iymoni but bo'lgan kishilar har qanday murakkabliklar boshqacha qilib aytganda, barcha qiyinchiliklarni bardosh bilan bartaraf etishga harakat qilsa, ba'zilar bunday xolatdan esankirab qoladilar. Natijada ijtimoiy hayotga loqaydlarcha munosabatda bo'ladi, ba'zi birlar esa hayotning yengil tomonini tanlaydilar. Bunday kishilar o'zlarining huzur halovatlarini o'yaydilar. Buni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qiyinchiliklar yoki turli mafkuraviy g'oyalar oqimi harakatidagi jarayonidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bugungi glovallashuv jarayonida mamlakatimizda ta'lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan uzlusiz ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, pedagog kadrlarning kasbiy bilimi, ko'nikmalarini va mahoratini uzlusiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga mos ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish, yuqori samarali zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etgan holda ta'lim mazmunini doimiy yangilab borish, o'qituvchi va murabbiylarning mashaqqatli va mas'uliyali



mehnatini har tomonlama munksib ragbatlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va boshqa masalalar davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda pedagogik texnologiyalar — bu o'quvchilar, talabalar yoki kengroq jamiyatni tarbiyalash, bilim olish va o'r ganish jarayonlarini yanada samarali va tizimli boshqarish uchun ishlab chiqarish metodikalar, usullar, ishlab chiqarish va strategiyalardir. Ular pedagogik faoliyatda o'quvchilarni yuqori darajada ma'lumotli va ijodiy shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'lim jarayonini samarali va interaktiv rejimda boshqarish, o'quvchilarning bilimlarini yanada sifatli o'zlashtirish va o'qituvchilarni innovatsiyalarga jalb qilish imkonini beradi. Ular milliy o'quvchilarning ta'lim jarayonini o'zgartiradi, balki jamiyatdagi ta'lim yangilash va rivojlanishga katta hissa qo'shadi.

Ijtimoiy pedagogning aralashishni talab qiluvchi har qanday muam moni hal qilish unga tashxis qo'yishdan boshlanadi. Tashxis qo'yish axborot tahlili, toplash va tizimlashtirishdan iborat. Keyingi bosqich bu muammoni hal qilish yo'llarini qidirish. Buning uchun tashxis asosida maqsad qo'yiladi va unga muvofiq faoliyatning aniq vazifalari belgilanadi.

"Ijtimoiy texnologiyalar" tushunchasi sotsiologiyada ijtimoiy jarayonlar natijalarini rejalashtirish imkoniyatlari atrofida aylanib chiqdi. Ijtimoiy texnologiya turlaridan biri bu ijtimoiy ish texnologiyalari bo'lib, ular ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish o'rtasida umumiyl bo'lgan ko'plab jihatlar tufayli ijtimoiy pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy

va pedagogik texnologiyalarni birlashtirgan texnologiya sifatida qaraladi. Ijtimoiy ta'lismi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi munosabat, ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan bir qatorda o'zgarib boradi. Bu kontekstda, e'tibor qaratadigan asosiy nuqta, bola va uning ijtimoiy muhitidagi o'zgaruvchan turadi. Ijtimoiy pedagog, bola bilan to'g'ri tarzda muloqot qilishda, uning kelgusi o'ziga xos vazifalarni bajarishi yoki uzoq muddatli vazifalarni bajarishi mumkinligini hisobga oladi. Ijtimoiy pedagogika metodlari orqali bolani o'z o'ngiga, xulki va his-tuyg'ulariga maqsadga muvofiq ta'sir etish va uni ijtimoiy muhitga ta'sir etish mumkin. Bu metodlar, bolani ijtimoiy o'zgargan, mustahkam qilishda yoki pozitiv ijtimoiy tajribalarni to'plashda yordam beruvchi, ijtimoiy pedagog va bolaning o'zaro munosabatlari bo'yicha metodlardir<sup>1</sup>.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish imkoniyati ijtimoiy pedagogik faoliyatning tashkiliy tuzilishiga bog'liq. Ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayoni maqsad va vazifalarni belgilashdan boshlanadi. Keyinchalik mutaxassislardan bolaning xulqatvorini shakllantirish, ularni yangi muhitga moslashtirish va boshqa maqsadlarni, faoliyat mazmunini, uni amalga oshirish usullarini va tashkiliy shakllarini belgilash kabi echimlarni ishlab chiqish talab etiladi. Ijtimoiy pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati uning maqsadlari, natijalari va mazmunini to'g'ri belgilash hamda tegishli usullarni tanlashga bog'liq.

Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lismi shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limga takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida o'rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaaryonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. O'zining va

<sup>1</sup> Sh. M. Mirziyoyev tanqidiy tahlil, qatiy tartib – intizom va shahsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- Toshkent – O'zbekiston – 2017 yil

boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, lo‘nda va puxta bayon eta olish, ishlatalishga qaratilgan interfaol o‘qitish usullari tez suratlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda<sup>2</sup>.

O‘quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’l-atvori har xil bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘quvchi asosiy harakatlanuvch kuch bo‘lib, o‘qish, mutolaa qilish, chizma chizish, proeksiyalar formulalarini tushunib asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, oldilariga qo‘yilgan muammolarni yechishda bir- birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlar o‘quvchilarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o‘ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o‘zgarishning vatanparvarlik g‘oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko‘zda tutadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ijtimoiy pedagogik texnologiya - o‘qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o‘quvchi yoki talabalaming kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. Ijtimoiy edagogik texnologiya, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o‘quv jarayonlari, ta’limtarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya’ni fan va texnika yangiliklarini o‘zida mujassamlashtiradigan o‘quv jarayonidir.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l — aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir.O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak.

<sup>2</sup> Azizxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev tanqidiy tahlil, qatiy tartib – intizom va shahsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent – O‘zbekiston – 2017 yil.
2. Azizzxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.
3. Bahrieyv A., Bahrieyva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / “Xalq ta’limi” jurnali, 2006, . -25-28 betlar
4. Jumaev A. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. “Xalq ta’limi” jurnali, 2006,. -17-20 -betlar
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya, 2003.